

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 2

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 2
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**2-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 2
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.



TALABA- YOSHLARDA MILLIY O'ZLIKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Zakirova Matluba Rayim qizi

Namangan davlat universiteti, doktorant.

e-mail: matlubazakirov1@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-7745-8405>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada milliy o'zlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni, ahamiyati, maqsadi hamda vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, muallif yoshlarda milliy o'zlikni shakllantirish jarayonida mamlakatimizning boy madaniy va ma'naviy merosi asosiy omillardan biri ekanligini yoritadi. Yoshlar ongida milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish uchun milliy ong, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy his va milliy xarakterni shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'zlik, milliy o'zlik, o'zlikni anglash, yoshlarda milliy o'zlikni shakllantirish, tarixiy xotira, ajdodlar merosi, axborotlashgan jamiyat.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ

Закирова Матлуба Раим кизи

Наманганский государственный университет, докторант.

Аннотация.

В статье рассматриваются сущность и содержание понятия национальной идентичности, её роль, значение, цели и задачи в жизни личности и общества. Особое внимание уделяется тому, что богатое культурное и духовное наследие нашей страны является одним из ключевых факторов формирования национальной идентичности молодёжи. Подчёркивается необходимость развития у молодого поколения национального самосознания, национальной гордости, национального достоинства, национальных чувств и национального характера как основы осознания собственной национальной идентичности.

Ключевые слова: идентичность, национальная идентичность, национальное самосознание, формирование национальной идентичности молодёжи, историческая память, наследие предков, информационное общество.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF NATIONAL IDENTITY AMONG UNIVERSITY STUDENTS

Zakirova Matluba Rayim qizi

Namangan State University, Doctoral Student.

Abstract.

This article examines the concept of national identity, its essence, role, significance, objectives, and functions in the life of individuals and society. The author emphasizes that the rich cultural and spiritual heritage of the country serves as one of the key factors in shaping national identity among young people. The study highlights the importance of fostering national consciousness, national pride, national dignity, national feelings, and national character as the foundation for developing young people's awareness of their national identity.

Keywords: identity, national identity, self-awareness, formation of national identity among youth, historical memory, ancestral heritage, information society.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari tobora jadallashayotgan bir sharoitda milliy qadriyatlarimizni, madaniy merosimizni va milliy o'zligimizni saqlab qolish har bir jamiyat uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida yoshlar, asosan, talabalar global axborot maydonida faol ishtirok etmoqda, bu esa ularning dunyoqarashi va madaniy identikligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti o'z-o'zini anglashi, eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma'naviy voqelik, sha'ni, qadr-qimmat, obro'-e'tibori, or-nomusi orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Hayotning ma'no-mazmunini, maqsadini tushunib yetish o'zlikni anglashdan boshlanadi. O'z-o'zini anglash millatning kelajak istiqbolini ham ko'ra bilishni talab qiladi. Bu ham kishilarning milliy ongi o'sishi, tafakkurlash madaniyati darajasi bilan uzviy bog'liq. Ma'rifatli, yuksak madaniyatli inson bugungi kun ehtiyojlarini qondirish uchunгина yashamaydi, balki ertangi kunini ham o'ylab yashaydi. Kelajakni ko'ra bilish, fahmlash milliy o'z-o'zini anglashning zaruriy qismini tashkil qiladi. O'z-o'zini anglash o'z Vatani va shu Vatanda yashagan xalqning, millatning o'tmishi, uning madaniyati, urf-odat hamda qadriyatlarini bilishi demakdir.

Milliy o'zlik — bu insonning o'zini ma'lum bir millatning vakili ekanligini anglashidir. U shaxsning milliy qadriyatlari, tili, dini, urf-odatlar, madaniyati va tarixiy xotirasi bilan bog'liq ichki ruhiy-ma'naviy tuyg'usidir.

Boshqacha qilib aytganda, milliy o'zlik — bu:

- Shaxsiy anglash — inson o'zini qaysi millatga mansub ekanini his qilishi.
- Qadriyatlar majmui — milliy til, madaniyat, adabiyot, san'at, urf-odatlar va tarixiy merosni qabul qilishi hamda asrab-avaylashidir.
- Jamiyat bilan bog'liqlik — o'z millatiga tegishli ekanligini faxr bilan his qilish va uni rivojlantirishga hissa qo'shishidir.

Demak, milliy o'zlik shaxsning "Men kimman?" degan savoliga milliy darajadagi javobidir. Xo'sh, bizga o'zligimizni anglash nima uchun kerak? Ayniqsa, hozirgi axborotlashgan jamiyat davrida o'zligimizni anglash biz va jamiyatimiz taraqqiyoti uchun qanday ahamiyatli tomonlarga ega? Degani savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin.

XXI asrni shiddat bilan rivojlanib hamda o'zgarib boruvchi axborot va texnologiyalar asri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hayotimizning har bir daqiqasida sodir bo'layotgan yangiliklar zamonaviy texnologiyalar yutug'ining samarasi o'laroq bir zumda butun olamga yoyilmoqda. Axborotlashgan jamiyat — bu zamonaviy texnologiyalar asosida shakllangan, axborot ishlab chiqarish, uzatish va tarqatish ustuvor bo'lgan ijtimoiy muhit va jamiyatning rivojlanish bosqichi bo'lib, unda axborot va bilim asosiy resursga aylanadi hamda texnologik taraqqiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib boradi. Axborotlashgan jamiyatda yangi texnologiyalar asosiy rol o'ynaydi. Internet, mobil telefonlar, raqamli platformalar va sun'iy intellekt kabi innovatsiyalar odamlarning kundalik hayotini, ishlash uslubini va ijtimoiy aloqalarini tubdan o'zgartiradi. Shu sababli insonlar ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazmoqda. Sir emaski, biz hayotimizni internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Mana shunday zamonaviy globallashtirish davrida insonlarda, ayniqsa, talaba-yoshlarimizda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi bo'lishi kerak. Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari uning qalbida Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi. Milliy o'zlik ularga "kim ekanini" eslatib turadi va yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishdan saqlaydi.

Milliy o'zlik yoshlarning Vatanni sevis, uni asrash, taraqqiyotiga hissa qo'shish tuyg'usini kuchaytiradi. Bu ularga faqat shaxsiy manfaat haqida emas, balki milliy manfaat haqida ham o'ylashni o'rgatadi va zamonaviy bilimlarni o'zlashtirar ekan, o'z milliylikini ham yo'qotmaydi. Bu insonlarning ijtimoiy faolligini ham oshiradi va o'z milliy qadriyatlarini anglagan hamda ularga sodiq bo'lgan yoshlar Vatan taqdiriga befarq bo'lmaydi, jamiyatda faol ishtirok etadi va bunyodkorlik ishlari uchun mas'uliyatni his qiladi. Milliy o'zlik orqali madaniy meroslarimiz, tilimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, san'atimiz va tarixiy xotiralarimiz avloddan avlodga o'tadi hamda xalqni yagona maqsad va g'oyalar atrofida to'playdi, birdamlik va totuvlikni kuchaytiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, bu millatning xalqaro maydondagi nufuzini belgilovchi muhim omildir. Shu bois milliy o'zlik mustaqil davlatning asosiy poydevoridir.

Shuning uchun globallashtirish va raqamli texnologiyalar asrida milliy o'zligimizni asrash va rivojlantirish jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarda milliy o'zlikni rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularga o'z tarixini chuqur anglatmog'imiz kerak, kimning avlodi ekanligini, ota-bobosi kim ekanini yaxshi bilishi lozim. Demak, tarixni yaxshi bilmasdan turib, o'zligimizni anglashimiz mumkin emas ekan. Shuning uchun ham tarixni buyuk muallim, tarbiya va ibrat manbai deyiladi. Zamonaviy texnologiyalar orqali milliy qadriyatlar, an'analar, san'at va adabiyot namunalari keng ommaga yetkazish imkonini yuzaga keldi. Hozirgi vaqtda yoshlar ko'p vaqtini onlayn maydonlarda o'tkazadi. Shu sababli raqamli platformalarda milliy qadriyatlarni ilgari surish va o'zlikni anglashga yordam beruvchi kontentlar yaratishimiz lozim, elektron kutubxonalar orqali tarixiy, madaniy va ilmiy merosni talabalar orasida targ'ib qilish zarur. Televizion ko'rsatuvlar, filmlar, maqolalar orqali tarixiy, madaniy va adabiy merosni talaba-yoshlarga yetkazish milliy o'zlikni anglashga yordam beradi.

Hozirgi kunda ko'ryapmizki, yoshlarimizning milliy qadriyatlarga qiziqishi ortmoqda, yoshlar orasida Navro'z, Mustaqillik kuni, milliy kiyimlar, milliy festivallar, milliy taomlar va xalq urf-odatlariga qiziqish kuchayib bormoqda. Xorijda tahsil olayotgan talabalar ham o'zini o'zbek sifatida ko'rsatishga, milliy madaniyatni tanitishga harakat qilmoqda. Yoshlarda o'z ona tilida ijod qilish, nutq madaniyatini rivojlantirishga qiziqish sezilmoqda.

Biz har sohada milliylikimizni targ'ib qilishimizga qaramasdan, yoshlarimizga G'arb madaniyatining haddan tashqari ta'siri kuchayib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda begona turmush tarzi, musiqasi, kiyinish madaniyati, so'zlashuv madaniyati tez tarqalib, yoshlarning dunyoqarashiga, fikrlashiga salbiy ta'sir qilmoqda. Ayrim yoshlarimiz milliy qadriyatlarimizni yuzaki qabul qilmoqda. Masalan, milliy bayramlarimizni faqatgina dam olish kuni yoki rasmiy tadbir

sifatida qabul qilmoqda, uning ma'naviy mohiyatini chuqur anglamagan. Tarixiy ongda bo'shliqlar bo'lishi, o'zining milliy tarixini to'liq bilmasligi, ayrim voqealarni faqat yuzaki eshitib qolishi yoki o'z tarixiga qiziqmasligi kuzatilmoqda. Hattoki shunday yoshlarimiz ham borki, "milliy manfaat"dan "shaxsiy manfaat"ni ustun qo'yadi. Bunday yoshlar global madaniy oqimlar ta'sirida o'z milliyligini yo'qotish xavfi ostida qolmoqda. Mana shunday salbiy holatlar kelib chiqmasligi uchun biz har tomonlama yoshlarimiz qalbi va ongiga milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini chuqur singdirishimiz lozim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o'z fikrini bildirar ekan: "Yangi tahdidlar, jumladan, ommaviy madaniyat xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo'qolishi xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir", deb ta'kidlaydilar. Bugungi globallashuv jarayonlari o'zining nimaga qodir ekanligini ko'rsatib kelmoqda. Bunday sharoitda har bir xalq o'zining milliy qadriyatlari, milliy an'analarini saqlab qolishga va uni boyitishga harakat qilishi lozim. Bu jarayon, albatta, yoshlar orqali amalga oshirilsa, yanada mustahkamlanadi va keyingi avlodga yetib boradi. Shu bois yoshlar ongida milliy o'zlikni anglashni shakllantirish uchun, avvalo, yoshlarda besh mezon talablarini shakllantirishimiz lozimdir.

1. Milliy ong — bunday g'oyalar, fikrlar tizimiki, u har bir millatning tarixiy taqdiri va kelajagi bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar, maqsadlarni ifodalash bilan birga, millat vakillari faoliyatini maqsad yo'nalishlari tomon boshqarib boradi.

2. Milliy g'urur — shaxs va ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan, ajdodlar qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, bu millatlar oldidagi qadri-qimmat, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

3. Milliy iftixor — millatning ma'naviy kamolotining barcha jihatlarini, merosi va bugungi qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Milliy istiqlool natijasida erishilgan, erishilajak iqtisodiy va ma'naviy yutuqlar ko'paygan sari O'zbekiston bilan faxrlanish hissi — milliy his ham shunchalik kuchayib boraveradi.

4. Milliy his — bu millat manfaati bilan birgalikda yashash va o'zi kimligini tanimoq. O'zligini tanimagan insonda milliy iftixor yo'qoladi. Milliylik, millatga mansublik — bu umumbashariy rivojlanishning qonuniyatidir, milliy g'urursiz hech bir millat millat sifatida shakllana olmaydi.

5. Milliy xarakter — bu o'zbek xarakteri, milliy ruhiyati, milliy o'ziga xos tomonlari asrlar davomida shakllangan hamda asta-sekin ularning qoniga va joniga singib ketgan.

Ushbu mezonlarga haqiqiy milliy o'zlikni anglashning poydevori bo'lsa, bu mezonlar asosida shakllangan yoshlar jamiyatimiz taraqqiyoti uchun yetarlicha hissa qo'sha oladi. Bunday jamiyat davlatning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim kerakki, bugungi erkin va mustaqil hayotning mazmuni va zarurligini yoshlarning ongi va qalbiga singdirishda, ilk avvalo, ota-onalar, ustoz-murabbiylar mas'ulligini chuqur his qilishi kerak. Zero, bugun yoshlarimiz qanday qadriyat va madaniyatlar tarafdagi harakat qilmoqda, qanday maqsadlar bilan yashamoqda — biz bunga be'e'tibor munosabatda bo'lmasligimiz lozim. Yoshlarda milliy o'zlikni rivojlantirish barkamol shaxs tarbiyasi va milliy davlatchilik barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Milliy o'zlikni asrab-avaylash, yosh avlodga yetkazish orqali biz ularni nafaqat milliy qadriyatlariga sodiq, balki jahon taraqqiyotida o'z o'rnini topa oladigan yetuk, barkamol insonlar sifatida voyaga yetkazamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. *Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir*. T. 15. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 326 b.
2. Daminov I. *Maslahatchi minbari*. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.
3. To'rayev Sh., Ochilov X., Xo'jayev M., Jo'raqulov F., Alimov N., Xudoynazarov O. *Milliy g'oyaning innovatsion targ'ibot texnologiyalari va yoshlarni axborot-psixologik xurujlaridan himoya qilishning zamonaviy usullari*. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.
4. *Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar: o'quv qo'llanma*. – Toshkent, 2002.
5. To'lanov J. *Qadriyatlar falsafasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
6. *ZiyoNET* – O'zbekiston ta'lim tizimi portali. – URL: <https://www.ziynet.uz>.
7. *Google O'zbekiston*. – URL: <https://www.google.uz>.
8. *O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari portali*. – URL: <https://www.edu.uz>.